



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

www.ijournal.uz

THE ROLE AND BENEFITS OF READING IN CHILD EDUCATION

Tukhtaeva Oygul¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

KEYWORDS

iron objects, child rearing,
'doing what he saw in the
bird's nest', lies

ABSTRACT

This article reflects on the upbringing of children, their behavior, an urgent issue of today, and their interest in iron objects rather than books.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7921973

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student, Narpay Faculty of Foreign Languages, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan

BOLA TARBIYASIDA KITOBOXONLIKNING O'RNI VA AFZALLIKLARI

KALIT SO'ZLAR/**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Temir buyumlar, farzand tarbiyasi, «Qush uyasida ko'rganini qilar», yolg'onlar

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Bu maqolada bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lgan bolalar tarbiyasi, ularning xulq-atvori, ularda kitoblardan ko'ra temir buyumlarga bo'lgan qiziqish haqida fikr yuritiladi.

Bilasizmi? Nimaga bizning oramizdan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Navoiy kabi buyuk zotlar chiqmay qo'ydi. Chunki biz qo'limizdagi temir buyumlarning qo'pol qilib aytganda quliga aylandik. Hech o'ylab ko'rorganmisiz? Hozirgi bolalarga kitobning nega qizig'i yo'qligi haqida yoki ular sizni eshitishdan ko'ra televizor ko'rishi afzal ko'rishi haqida. Hop men misol keltiraman 5 yoshli singlim bor. Agar men unga televizor ko'rishi yoki ertak eshitishni taklif qilsam, u televizorni tanlaydi. Kitob yoki telefonni tanlashga to'g'ri kelsa, u har doim telefonni tanlaydi. Nachora, qo'liga telefonni tutqazaman, shunga majburman, agar yo'q desam yig'lashni boshlaydi. Bolalar kattalarni boshqaradi deganlari shu bo'lsa kerak. Temir buyumlar esa nafaqt yoshi kattalarni, balki yosh bolalarni ham boshqarmoqda. Bu esa juda yomon. Axir bu xavfliligini bilib turib nimaga bunga qarshi chiqa olmaymiz. Temir buyumlarga ham bolalar qo'li yetmaydigan yerda saqlansin deb yozish kerakmi?

Farzand inson hayotining mazmuni, nasl-nasabining davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiri. Shunday ekan ota-onalar farzandlarining tarbiyasiga befarq bo'lmasliklari, ular bilan ko'proq vaqt o'tkazishlari, dildan suhbatlashishlari kerak. Bolaning ota-onaga mehrsizligi ham xuddi shu befarqlikdan kelib chiqadi. Ko'pchilik ota-onalar farzandiga vaqt ajrata olmaydi. Bunday ota-onalar mehr ko'rsatmasdan yana mehr kutishadi. Bu menga xuddi daraxt ekib qo'yib, uni parvarish qilmasdan meva kutgan kishining ahmoqligidek tuyiladi. Shunday farzandlar borki, ularni ko'rGANINGIZDA o'zidan kichik ukalarini tarbiyalash borasida ota-onasiga yordam berish uchun ato etilgan ilohiy in'om ekanini his qilasiz. Ular odobli, dono, itoatgo'y, oliyjanob, tirishqoq va yana bir talay sifatlarga ega. Ular o'z ukalariga oyna kabi kabidirlar. Ularning xatti-harakatlari ukalari tomonidan takrorlanadi. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek, "Qush uyasida ko'rganini qilar". Ba'zi farzandlar bor ular ota-onasiga yigirma yillar davomida tinchlik bermaydilar. Bu farzandlarning tarbiyasiga vaqtida ahamiyat berilmaganidan yuzaga keladi. Hech kim o'zidan o'zi yomon bo'lib qolmaydi. Ota-onalar bunday farzandlarni yoshlida xohlaganini qilishga yo'l qo'yishmagan. Shu sababli ular ulg'ayib ota-onasiga isyon qila boshlaydi. Bu qanday bo'ladi yoshlida bolangiz koptok o'ynashni xohlaganda, siz uni dars tayyorlashga majburlagan bo'lishingiz mumkin. Eslab ko'ring. Ularni tushunishga harakat qiling,

bo'larbo'lmasga bolani ham, o'zingizni ham qiynamang. Bu gaplar bilan men bola xohlaganini qilsin, demoqchi emasman. Lekin iloji boricha yoshligida ularni qiziqtirgan holda aytganlaringiz qildirishga harakat qiling. Ularga zulm qilmang. Bunday qilishni keragi yo'q.

Yana bir gap ularni hech qachon aldamang. Hamma narsani boricha ayting. Yolg'onlar bolaning ruhiyatiga yomon ta'sir qilishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning hayotiga ta'sir o'tkazadigan katta o'rnaknamuna ota-onadir. O'g'il bolalar asosan otalaridan, qizlar esa onalaridan o'rnak oladilar. Ularga telefonni qo'y, undan ko'ra kitob o'qi, deyishdan oldin, avval o'zingiz olib o'qing. Agar shunaqa qilsangiz, sizni ko'rib aytmasangiz ham o'zi o'qiy boshlaydi. Har bir bola bir olam, ularning qalbi qordek oppoq. Ularga yoshlik davrida nimani o'rnatsangiz shuni ulg'ayganda qo'llay boshlaydi. Shunday ekan farzandingizni to'g'ri tarbiyalang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Усмонхон АЛИМОВ. ОИЛАДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ. Тошкент 2014. (26-бет)
2. Абдулкарим Баккор. Фарзанд тарбиясига оид ўн қоида. Ixlos, 2017 (11-38бетлар)
3. <https://fayllar.org/maktabgacha-yosh-davrida-psixik-rivojlanish-xususiyatlari.html>